

QO'QON – SHARQIY TURKISTON: SAVDO ALOQALARI TARIXIDAN

Avliyaqulov Isroil Murtazaqulovich

*DXX Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar"
harbiy-akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan Qo'qon xonligining savdo munosabatlarida Sharqiy Turkistonning tutgan o'rni va Qo'qon xonligini Sharqiy Turkiston bilan bog'laydigan karvon yo'llari, elchilik aloqalari hamda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq maxsulotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Sharqiy Turkiston, Xitoy, Qashg'ar, savdo aloqalari, andijonliklar, Oqsoqollar.

Qo'qon xonligining savdo-sotiq munosabatlarida Sharqiy Turkistonning o'rni asosan Xitoy bilan olib borilgan siyosiy hamda savdo munosabatlarida alohida ajralib turgan. Chunki Qo'qon xonligi Sharqiy Turkiston bilan bevosita chegaradosh hamda uni Xitoy bilan bog'laydigan karvon yo'llari sharqiy Turkiston orqali amlga oshirilgan. 1760-yilda Sharqiy Turkiston Sin imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng Xitoy davlati unga Sinszyan—“yangi chegara” yoki “Yangi hudud” nomini bergen. Sharqiy Turkiston hududiy atama siftida XVIII asrdan boshlab kirib kela boshlagan. [1: 99, 100]. Sharqiy Turkiston Qo'qon va Xitoy o'rtasida savdo va siyosiy jihatdan ikki davlatning munosabatlari to'qnashgan nuqta sanalgan. Shuning uchun Qo'qon xonligi hukumdlorlari hamda Xitoy o'rtasida bir birlariga elchilar yuborilib turgan. Qo'qon xonligi Erdonabiy (1751-1764) davrida Pekinga sakkiz martadan ortiq elchi yuborilgan. [2: 36]. Mirzo Olim Maxdum Xojining “Tarixi Turkiston” asarida ham keltirilishicha, Erdonabiy davrida muzokaralar olib borib Xitoyning Sharqiy Turkiston-Qashqar ishlariga daxl qilmasligi haqida shartnomaga tuzadi va ancha muddat tinchlik o'rnatiladi, degan ma'lumotlar keltirilgan. [3. 8]. Norbo'tabiy (1764-1798) hukumronligi davrida Sharqiy Turkistonda Qo'qon savdosini va Qo'qonlik savdogarlarning o'lka bozorlaridagi faoliyatini erkinlashtirish uchun 1782-1783-yillarda Abulkosim boshchiligidagi elchilar guruhini Pekinga jo'natgan. [2: 39]. Ikki davlat o'rtasida elchilik aloqalari Olimxon va Umarxon hukumronligi davrlarida ham to'xtab qolmagan. Umarxon vafotidan so'ng taxtni egallagan Muhammad Alixon (1822-1842) hukumronligi davrida Sharqiy Turkistondagi Qo'qon savdosidan ham foyda ko'rish uchun Qo'qon savdogarlarining Sharqiy Turkistondagi savdo faoliyati masalasi yuzasidan bir necha bor Qo'qon elchilarini Qashqarga yuborgan. Masalan, 1825-yil 10-fevralda Abduxoliq va Javxarni, ulardan so'ng shu yili Imangulini Qashqarga elchi etib yuborgan. Shu yilning o'rtalarida Mirza Azamatullo va Abduxoliq boshchiligidagi elchilar ham Qashqarga kelgan. [2. 43]. *Qo'qon savdogarlari Sharqiy Turkistonda mol*

ayriboshlash yo'li bilan yoki Qo'qonning oltin, kumush va mis tangalari, Sharqiy Turkistonning o'zida zarb ettirilgan "yarmoq" pullari vositasida savdo qilganlar. Shu bilan birga, ular savdoni Xitoyning asosiy vayutasi xisoblangan yombi bilan ham amalga oshirganlar. [2. 92, 93]. Manba va adabiyotlarga qaraydigan bo'lsak Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlari anchagina rivojlangan bo'lib, ular o'rtasidagi savdo Qashg'ar orqali amalga oshirilgan. Qo'qon bilan Qashg'ar o'rtasidagi savdo aloqalari Muhammad Alixon davrida siyosiy mojarollarga qaramasdan Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan chegarasida bir nechta (Darant-Qo'qon, Qizil-Qo'qon, So'fi-Qo'qon) qurilgandan so'ng juda keng rivojlangan.

Tadqiqotchilarning olib borgan izlanishlari Sharqiy Turkiston bilan O'rta Osiyoda serqatnov karvon yo'llari, o'tganligini ko'rsatadi. Farg'ona vodiysidan Qashg'arga o'tgan ikki yo'nalishdagi karvon yo'li bo'lган. Biri Andijondan O'zgand, Chadirkо'l va Toinboshi daryosi orqali Qashg'arga boradi. Boshqasi esa Terekki-davon orqali Qashg'arga eltadi.

Ch.Ch.Valixonov Qashqarga sayohatida O'shdan Qashqarga boruvchi Terektin yo'li bo'lganligini e'trof qilgan. Bu yo'ldan yil davomida har kuni yuk ortilgan otlar turnaqator bo'lib o'tadi. Terektin yo'li yem-xashaklarga boy bo'lган. Shu yo'l orqali karvon Qo'qondan Qashqarga 18 kunda yetib kelgan. [1: 99, 100, 103]. Qo'qon xonligi va Xitoy o'rtasidagi kurash ham Sharqiy Turkiston hududga egalik qilish bilan bo'liq bo'lган. Bu hudud Xitoydan g'arbga borish uchun asosiy savdo yo'lida joylashgan. Sharqiy Turkistonni Tyan-Shan tog'I ikki tabiiy geografik zonaga bo'lib turgan. Shimoliy qismi Jung'oriya bo'sa, Janubiy qismi Yettisuv, Qashg'ar deb atalgan. Qashg'arning shaharlaridagi bozorlar gavjum bo'lib, ular turli tomonidan savdo yo'llari bilan tutashgan. Bu yerga sharqdan xitoylik savdogarlar, shimoldan Rossiyadan kelgan tatar savdogarlari va g'arbdan Qo'qon, Buxoro savdogarlari o'z mahsulotlarini olib kelib sotgan. Sharqiy Turkistondagi savdodan Qo'qon xonligi xazinasiga juda kata miqdorda daromad tushgan. Xitoy manbalariga ko'ra, XVIII asr oxirlarida xonlikka savdodan tushadigan daromad 60-70 ming tillani tashkil etgan. [4:57].

CH. Valixonovning ma'lumotlariga ko'ra, Qashg'arda savdogarlarning umumiyligi va ahamiyati jihatidan birinchi o'rinda qo'qonliklar, keyin buxoroliklar turgan va xitoylikar ularni "andtsidjon" (andijonliklar) nomi bilan ataganlar. 1832-yili tuzilgan shartnomaga ko'ra Qashg'arni resident va konsul huquqiga ega bo'lган oqsaqol boshqargan. Oqsaqol Qo'qon xoni tomonidan tayinlangan va uning xazinasiga 500 kumush yombi jo'ntib turgan. Ushbu oqsaqol huzurida qozi, imom va qo'rboshilar bilan birga "xon dalloli" deb ataluvchi, mansabdar bo'lган. O'ndan bir ulushini olgan.

Qashg'ardan chiqib kelayotgan karvondagi har bir ulovdan 2 tangadan boj olingan. Dallolr xazinaga yiliga 3600 kumush pul to'lab turganlar. Buning evaziga oqsaqollar qo'rboshilar yordamida savdogarlarni yo'l qaroqchilaridan himoya qilgan. [4: 57]. Sharqnomaga muvofiq, qo'qonliklar Oqsuv, Uch-Turfan, Qashg'ar, Yangi Hisor

Yorkent va Xo'tan kabi shaharlarda O'rta Osiyolik savdogarlardan savdo bojini olish huquqiga ega bo'ladi. [5: 177]. Sharqiy Turkistonning Buxoro, Xiva Hindiston, Afg'oniston, Rossiya kabi davlatlar bilan tashqi savdosi Qo'qon orqali olib borilgan. Qo'qondan Qashg'arga asosan, rus temiri, qizil charm, mato, movut, Rigada ishlangan duxobalar, oynalar, qalampirmunchoq, novshadil, simob, bo'yoqlar, oltin olib borilgan. Qashg'ardan Qo'qonga esa, asosan, gilam, nashatil, choy, va kigiz keltirilgan. Qashg'ardan Qo'qonga har yili 30 000 otda choy, 200 otda oq rangli mato, 50 otdan attorlik buyumlari keltirilgan. Qo'qon va Qashg'ar o'rtasidagi savdo aloqalari, albatta, siyosiy voqealarga bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, 1826-1832- yillardagi urush vaqtida savdoda pasayish kuzatilgan bo'lsa, 1832-yilgi shartnomadan so'ng kata o'sish yuz bergen. [4: 57, 58]. XIX asr ikkinchi yarmiga kelganda, M.D. Skobelovning ma'lumotiga qaraganda, xonlikning Qashg'ar bilan savdo-sotig'I yiliga 30-40 ming tillaga teng bo'lgan. Qo'qondan Qashg'arga jo'natilayotgan molar asosan, Andijon shahrida kuzatuv va tekshiruvdan o'tkazilgan. [6: 414].

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilganligini manba va Qo'qon xonligi tarixini yoritib beruvchi adabiyotlardan ham bilishimiz mumkin. Qashqardagi savdodan Qo'qon xonligi xazinasiga juda kata daromad tushgan. Ammo Qo'qon va Qashqar o'rtasidagi savdo aloqalari albatta, siyosiy voqealarga ham bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, 1826-1832- yillardagi urush vaqtida savdoda pasayish kuzatilganligi, 1832-yilgi shartnomadan so'ng kata o'sish yuz bergenligini bilishimiz mumkin. Bu voqealarga, Xitoyning ta'siri katta bo'lib, asosan hudud masalasida ya'ni huhudga egalik qilish bilan bo'liq bo'lgan. Chunki, Qashqar savdo-sotiq qilish uchun qulay joyda joylashganligi va bevosita Qo'qon hamda Xitoy davlatlari bilan chegaradosh bo'lganligi ham sabab bo'lgan.

Foydanalilgan manba va abbiyotlar:

1. R.R.Alimova, O'rta osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari (XVI-XX asr boshlari rus tarixshunosligi va manbalari asosida) – Toshkent, 2017.
2. Sh.Qo'ldashev, Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston: siyosiy,iqtisodiy va madaniy aloqalari – Toshkent, 2021.
3. Mirzo Olim Maxdum Xo'ja Tarixi Turkiston – Yangi asr avlod, 2009.
4. I.Kuzikulov Qo'qon xonligi tarixi – "Namangan" nashriyoti, 2014.
5. G.Normurodova, O'zbekiston tarixi (XVI-XIX asrlar birinchi yarmi) – Samarqand, 2022.
6. X.Boboyev, Z.Xidirov, J.Shodiyev, M.Ahmedova, O'zbek davlatchilik tarixi (II kitob) – Toshkent, 2009.